

IMOM SADR SHAHIDNING “AL-VOQIAT” KITOBINI BOBLAR VA BO‘LIMLARGA BO‘LINISHI

Nasriddinzada Israiljon,

PhD student of the department of "Islamic Word Educational, Scientific and Cultural Organization ICESCO" at the International Islamic Academy of Uzbekistan Tashkent, UZBEKISTAN

E-mail: isroil-27@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sadr Shahid rohimahullohga tegishli “al-Voqiat” kitobning boblar va bo‘limlarga bo‘linishi va kitobdagi ko‘tarilgan masalalar va ularning yechimlari hususida ma’lumotlar keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “al-Voqiat”, Sadr Shahid, Sahobalar, Qur’on karim, qabr, mulohaza.

Sadr Shahid rohimahulloh olimlar ichida yuksak ilmiy maqomga erishgan, u buyuk faqihlardan bo‘lib, u ulug‘ imomlardan edi. Uning qarashlari ma’lum va mashhur edi, ulamolar uni maqtab, uning fazilati va oliyjanobligini tasdiqlaganlar.

Imomning fiqhiy yondashuvi manhajlarini uning “**al-Voqiat**” kitobi orqali quyidagi fikrlarda yoritib berish mumkin.

Birinchidan: kitobning kitoblar, boblar va bo‘limlarga bo‘linishi

Bu muallifning kitobiga qanchalik e’tibor berganligini ko‘rsatadi, chunki kitobni (kitob-bob-bo‘lim) va shunga o‘xshash qismlarga bo‘lish ma’lumotlarni eslab qolish va uning ongda barqaror bo‘lishiga yordam beradi.

Ikkinchidan: dalilga ergashishga bo‘lgan chanqoq(hirs)

U Nabiy sollalohu alayhi vasallamning yo‘riqnomalari riosa qilgan va bu muallifga ko‘plab dalillar keltirishiga undagan. Shuning uchun uning: “**Bu ish payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam tomonlaridan qilinmagan va sahabalar tomonidan tasdiqlanmagan**”- deyishidan bilishingiz mumkin va buni Ibodat bobida, muomala va ko‘plab fiqhiy boblarda dalillarni keltirib ba’zida ularni tushuntirganini ko‘rishingiz mumkin:

- 1) qabrlarga qabr tosh qo‘yishni yaxshi ko‘rish
- 2) o‘lganlarga namoz o‘qishda yoshi ulug‘larni

Uchinchidan: fiqhiy masalalarni zikr qilishdagi ko‘rinib turuvchi belgilar

“**Mulohaza**”, deyarli hech bir narsa mulohazadan holi emas, muallifning fikrlash usullari xilma-xil bo‘lib, ba’zida Qur’ondan va sunnatdan zikr qilardi. Mulohaza hanafiy fiqhining mustahkam o‘rnashgan xususiyatidir. Chunki hanafiy ulamolari o‘zlarining o‘xhatishlari va ma’qullahlarini boshqalarga qaraganda ko‘proq hush ko‘rishingan va shuning uchun ular masalalarning sababalrini o‘rganishga qiziqishgan.

To‘rtinchidan: muammoli so‘zlarni sharhlash

Misol: kimdir tuflisini artmay, ertalab yursa va unga shudring tushsa, uni “Farijab” deyiladi. Ba’zilar: ““Farijob” peshin vaqtida dengizdan bug‘lanib chiquvchi va u bilan narsalar nam bo‘luvchi narsadir”-deydi.

Beshinchidan: fiqhiy masalalar

Imom Sadr Shahid fiqhiy masaklalarni bayon qilar ekan, xuddi Imom Sarxisiy kabi yo‘l tutib, avval Imom Abu Hanifaning so‘zlarini, so‘ng Shofr’iy rohimahullohning so‘zini va dalilini qisqacha tilga olar edi. Fiqhiy masalalarga asos bo‘lgan eng kuchli dalil bo‘lmish Shofe’iyning dalillarini keltirish yetarli bo‘lardi, so‘ng u dalillarni keltirib “**va biz uchun bu kifoya qiladi**” deb masalani yakunlardi. Bu kuchli manhaj bilan Imom Sarxisiy, so‘ng Imom Sadr Shahid keyin Imom Kosoniy ajralib turdi.

Oltinchidan: mazhabning ayrim gaplarining sharhlash

Masalan, “**Sahobalarimizning aytgan so‘zlari shudir**”. Misol: bir kishi hayvon ustida namoz o‘qisa-yu, uning egari najas bo‘lsa, bunda ikki masala bor: agar egarda qon yoki najosat bir dirham kattaligidagicha bo‘lsa, namozi buziladi. Chunki u najosat bor joyda namoz o‘qidi. Ikkinci masala: eshakning tupugi yoki teri bo‘lsa, namoz joizdir. Chunki u noaniqdir, bu sahobalarimizning so‘zidir: “**Kim hayvonning ustida namoz o‘qisa, lekin egarda najosat bo‘lsa namoz joiz emas**”

Yettinchidan: mazhab imomlari rivoyat qilgan rivoyatdagi gumanoni tuzatish

Bunga misol: junub inson “**Allohim endan madad so‘raymiz**” deyishi ma’qul emas, chunki bu gap Qur’ondan bo‘lishlik ehtimoli bor deb Muhammad sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilingan, lekin buni Tohoviy tasdiqlamagan, va shunga fatvo berilgan.

Sakkizinchidan: hukmlarda qat’iyklik va jazmning yo‘qligi

Bu uning tilyog‘lamachiligiga va ehtiyyotkorligiga dalolat qiladi, chunki u o‘zining ba’zi fatvolarida (umid qildimki) da’vat qilish va ishda yaxshilik so‘rash, musulmonlarga tegishli bo‘lgan masalalarda yengillik izlash so‘zini zikr qilganini ko‘ramiz.

To‘qqizinchidan: uning foydasi davomiy emasligi

Muallif o‘z fatvosida davomiy foydaga ega bo‘lgan narsalarga e’tibor qaratmoqchi bo‘lgan, chunki, shubhasiz, foydasi davomiyligi qisqasidan afzaldir.

o’ninchidan: Imom Sadr Shahidning masalalarni hal qilishda yondashuvining xususiyatlari

U “agar libosga qushdan nopal narsa bir dirham miqdoricha tushsa, namoz joiz bo‘ladi”-dedi, lekin Muhammad rohimahulloh namoz joiz bo‘lmaydi dedi, shunda ular ixtilofga tushib qoldilar. Namozning joiz bo‘lishi libosning tozaligi yoki undagi nopalikning miqdoriga bog‘liq.

To‘g‘risi: u najasdir, kiyimning pokligiga emas, uning nopoqligiga qaraladi, chunki suvga oz miqdorda najas(nopok narsa) tushsa, suvni bulg‘aydi.

2) Agar ayol juda boy bo‘lib, er o‘rtacha hayot kechirsa, ayolga eri sarflagan xarajati miqdorida u ham sarf qilishi farzdir, ayol kishiga bor mulkini oilaga sarf qilishi farz qilinmaydi, osonchilikda ham, qiyinchilikda ham erining holiga e’tibor qiladi va uni o‘z holiga tashlab qo‘ymaydi. Muhammad rohimahulloh bu haqida o‘zini “Nikoh” kitobida keltirib o‘tgan va Xassof ham bu masalani o‘zining “Kisva” kitobida keltirib o‘tgan.

3) Eshitganiga guvohlik berish joizdir, bundan murod: agar bir kishi boshqa birovning oldi-sotdi, taloq, ozodlik, tuhmatini eshitsa, unga buyruq berilmasa ham, guvohlik berishi joiz. Bunga misol, ulamolardan: **“U guvohlik bermagunicha joiz emas”**-deganlari ham bo‘lgan.

To‘g‘risi: Sadr Shahid va biz aytganimizdek, yuqorida keltirib o‘tilgan masalalarda, ya’ni birovning haqqi yoki tuhmatini eshitgan odamning guvohligi joizdir. Imom Sarxisiy : **“Ko‘rmagan va eshitmagan odamning guvohligi hech bir masalada joiz emas. Chunki u guvohlik berayotgan narsasida hech qanday ilmaga ega emas, va ilmsiz guvohlik berish ham joiz emasdir”**-deb aytgan. Alloh Taolo Qur’onda shunday marhamat qiladi : **“Magar, bilgan hollarida haq shahodat bergenlargina shafoatga ega bo‘lurlar”** (Zuxruf 86-oyat). **“Biz faqat o‘zimiz bilgan narsaga guvohlik berdik, xolos”** (Yusuf 81-oyat). Guvoh qoziga vaziyatning haqiqatini bildiradi va rost so‘zlovchini yolg‘onchian ajratadi. Agar vaziyat haqida hech narsa bilmasa, rost so‘zlovchi va yolg‘onchini ajratib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamiyat har doim uning taraqqiyoti va farovonligiga hissa qo‘sadigan masalalarga ta’sir qilishi mumkin va bu farovonlik va taraqqiyot uning xalqining zimmasidadir. Chunki, Husomuddin Sadr Shahid kabi Mavarounnahrda yashab ijod qilgan, jamiyatning rivojlantirishda katta ijtimoiy ro‘l o‘ynagan Hanafiy mazhabi ulamolariga xalq yordam bergen, ular orasida hukmdorlar va hokimlar xakillari ham bor edi. Ularning o‘zlari ham olim va faqih bo‘lishgan va jamiyatda katta o‘rin egallaganlar, lekin Hanafiy mazhabi ulamolarining aksariyati o‘rta tabaqadan bo‘lishgan, chuki ular orasida ulamolar va dindorlar bor edi.

Davlatdagi ilmiy lavozimlarda ishlagan insonlr, jumladan, voiz, diniy tariqat rahbarlari, tariqat rahbariyati, faqihlar va boshqalar fiqhiy manhaji va uning kuchli tomonlari nuqtai nazaridan jamiyatga katta ta’sir ko‘rsatishgan. Sadr Shahidning “al-Voqiat” kitobi ham o‘sha davr va hozirgi ijtimoiy va diniy masalalarda juda muhim o‘rin tutgan.